O‘ZBEK NUTQIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Tursunova Shahnoza Xamidullo qizi
NamDPI
tursunovashahnoza1997@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan pragmalingvistikaning shakllanish bosqichlari, uning nazariy asoslari hamda o‘zbek tilshunosligidagi tadqiq etilish darajasi yoritilgan. Shuningdek, muloqot jarayonida lisoniy birliklarning o‘rni, kommunikativ prinsiplar, nutq egasi va til munosabati masalalari tahlilga tortilgan. Maqolaning asosiy e’tibori frazeologik birliklarning pragmatik funksiyalari, ularning uzual va okkazional uslubiy vazifalari hamda milliy-madaniy, lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, bu borada o‘zbek tilshunos olimlarining ilmiy qarashlari umumlashtirilgan.*

Kalit so‘zlar: *pragmalingvistika, kommunikativ prinsiplar, frazeologik birliklar, uzual va okkazional birliklar, pragmatik funksiyalar, lingvokulturologiya, o‘zbek tilshunosligi.*

Abstract. *This article highlights the stages of formation of pragmalinguistics—one of the priority directions in modern linguistics—along with its theoretical foundations and the level of its study in Uzbek linguistics. Furthermore, the paper analyzes the role of linguistic units in the communication process, communicative principles, and the relationship between the speaker and the language. The main focus of the article is on uncovering the pragmatic functions of phraseological units, their usual and occasional stylistic tasks, as well as their national-cultural and linguocultural features, summarizing the scientific views of Uzbek linguists in this field.*

Keywords: *pragmalinguistics, communicative principles, phraseological units, usual and occasional units, pragmatic functions, linguoculturology, Uzbek linguistics.*

Аннотация. *В данной статье освещаются этапы формирования прагмалингвистики как одного из приоритетных направлений современного языкознания, ее теоретические основы, а также степень изученnosti в*

узбекском языкознании. Также анализируются роль языковых единиц в процессе коммуникации, коммуникативные принципы, вопросы взаимоотношения говорящего и языка. Основное внимание в статье уделено раскрытию прагматических функций фразеологических единиц, их узуальных и окказиональных стилистических задач, а также национально-культурных и лингвокультурологических особенностей, при этом обобщены научные взгляды узбекских языковедов в данной области.

Ключевые слова: *прагмалингвистика, коммуникативные принципы, фразеологические единицы, узуальные и окказиональные единицы, прагматические функции, лингвокультурология, узбекское языкознание.*

Kirish. Tilshunoslik sohasida tadqiq etilgan har bir yo‘nalish fanning eng ilg‘or an’analarini rivojlanitirish bilan birga, uni yangi g‘oyalar, qarashlar bilan boyitadi. XX asr boshlarida shakllangan sistem-struktur yo‘nalishi tilga tizim sifatida qarash masalalarini o‘rtaga qo‘ydi va bu borada bir qator izlanishlar amalga oshirildi. Tilshunoslik sohasida undan keyin keng o‘rin olgan yangi yo‘nalish pragmalingvistika o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Til birliklarini pragmatik yo‘nalishda tadqiq etish ularning bevosita ko‘zga tashlanmaydigan faqat nutqda yuzaga chiquvchi ichki imkoniyatlarini aniqlashga yo‘l ochdi. Natijada til birliklarining nutqiy vaziyat bilan bog‘liq holda reallashuvi pragmatik vazifalarini aniqlash muammosi yuzaga keldi. Kommunikatsiya va pragmatika munosabati masalasi bilan bog‘liq ilmiy-nazariy masalalar: sintaktik birliklarga pragmatik yondashuv, sodda gapning kommunikativ aspekti, sodda gapning pragmatik aspekti, pragmalingvistik tahlil va uning tayanch tushunchalari tilshunoslikda, shuningdek, o‘zbek tilshunosligida pragmalingvistik tahlilning paydo bo‘lishi, bu sohada qilingan ishlar natijalari va muammolarini qo‘rsatadi. Tilshunoslik fanining eng yetakchi va ustuvor tahlil usuli bo‘lgan struktural metod nutq faoliyatida lisoniy va nutqiy sathni izchil farqlab, lisoniy imkoniyatlar – muayyan tildagi barqaror o‘zgarmas qonuniyatlarni ochib bergach, bunday qonuniyatlarning nutqiy voqelanishi, aniqrog‘i, nutqiy vaziyat, kontekst bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish bir pog‘ona yuqori bosqichga ko‘tarildi. Natijada, tilshunoslik, nutq egasi va til masalasi ko‘ndalang qo‘yilib, fan antropotsentrik mohiyat kasb eta boshladi va yangi yo‘nalishlar shakllandi. Muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo‘llash hamda ushbu qo‘llashdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga

ta’siri masalalarini o‘rganuvchi pragmalingvistika ham ana shunday yo‘nalishlardan biridir[25].

O‘zbek tilshunosligida ham pragmalingvistik tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda va bu borada yangi ishlar olib borilmoqda. Sintaktik birliklarning so‘zlovchi va til belgisi munosabatiga asoslanuvchi pragmatik aspekt til tadqiqida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, hozirgi kunda nutq egasi va til munosabatini o‘rganish sohasining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi ma’lum. O‘zbek tilshunosligida, yuqorida aytib o‘tganimizdek, M.Hakimov, A.Nurmonov, Sh.Safarov, N.Mahmudov kabi tilshunos olimlar pragmalingvistik yo‘nalish bo‘yicha qator izlanishlar olib bordilar. Jumladan, M.Hakimovning “O‘zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari” (1993) mavzusidagi nomzodlik, “O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini” (2001) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalarida pragmatik tahlil va pragmalingvistikaning boshqa yo‘nalishlari, jumladan, nutqiy akt nazariyasi, presuppozitsiya kabi sohalarini tadqiq etgan. Shuningdek, A.Nurmonov, N.Mahmudov ishlarida ham diktum, modus, presuppozitsiya kabi pragmatika yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Kishilar o‘rtasidagi munosabatni ifoda etuvchi nutqiy etiket ko‘rinishlari, nutqning sotsial xoslanishi lingvistik pragmatikaning o‘rganish sohasi sanaladi. Nutqiy aralashuv jarayonidagi suhbatning maqsad va yo‘nalishiga ko‘ra P.Grays quyidagi to‘rt prinsipni ko‘rsatib o‘tadi: A) axborotning to‘liqligi; B) axborotning sifati; B) axborot yo‘nalishidan chetga chiqmaslik; G) so‘zlash manerasi (aniq va qisqa).

Bu yo‘nalishga xos ishlar o‘zbek tilshunosligida ham amalga oshirilgan. Jumladan, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.O‘rinboyev, S.Mo‘minovlarning nutq madaniyati va kommunikativ xulq, kommunikativ aktda frazeologik birikmalarni o‘rinli qo‘llash masalariga bag‘ishlangan ishlari, P.Grays ta’kidlaganidek, lingvistik pragmatikaning umummasalalaridan hisoblanadi. Bunday tadqiqotlarning yuzaga kelishi lingvistik pragmatika nazariyasining boyib borishida muhim o‘rin tutadi.

Pragmalingvistik tadqiqotlarda ham erkin va turg‘un birikmalarning differensial xususiyati “tayyorlik” yoki “barqarorlik” belgisi ekanligi ko‘rsatiladi. Mazkur belgiga ko‘ra oppozitsiyaga kirishuvchi so‘z birikmasining turg‘un birikma a’zosi kuchli, markerlangan, erkin a’zosi esa kuchsiz, markerlanmagan a’zo hisoblanadi. Turg‘un birikmalar “tayyorlik”, “barqarorlik” belgilariga ko‘ra umumiylikni hosil qilsa ham, o‘z ichida ma’lum differensial belgilariga ko‘ra

[25] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т. : Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 70.

farqlanadi va shu asosda kichik guruhlarga bo‘linadi. Frazeologizm atamasining ta’rifi, mundarijasi haqidagi Sh.Rahmatullayev, Sh.Shoabdurahmonov, A.Hojiyev, G‘.Salomov, H.Berdiyorov, R.Rasulov, A.Mamatov, D.Quronov va boshqa filolog olimlarning fikrlari alohida e’tborga molik.

Frazeologik birliklarning pragmatik funksiyasi adresatga maqsadli ta’sir etishdan boshlanadi. Bu o‘z-o‘zidan FBlarning stilistik-uslubiy xususiyatlari bilan bog‘liq. G.E. Hakimova fikrlariga ko‘ra: “FBlar obrazlilikni, ekspressivlik va emotsionallikni yuzaga keltiruvchi muhim vositalar bo‘lib, ular badiiy publitsistik matnlarning ifodaviy ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Frazeologik birliklar ixcham shaklga ega bo‘lib, ma’no jihatidan salmoqdor va ta’sirchandir”[26]. Taniqli o‘zbek frazeologi B.Yo‘ldoshev o‘zining “Frazeologik uslubiyat asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmasida frazemalarning uslubiy ma’nolari, uslubiy tarmoqlanishi, uzual va okkazional uslubiy vazifalari haqida qimmatli fikrlar bildirib, o‘zbek frazeologiyasining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Olim FBlarning uslubiy funksiyalari to‘g‘risida so‘z yuritib, iboraning ichki tabiatidan kelib chiquvchi “tabiiy” funksiyalarini uzual, u yoki bu so‘z san’atkorining estetik maqsadi, xohish irodasi, tildagi novatorligi bilan aloqador individual xarakterga egalarini okkazional uslubiy funksiyalari deb ataydi. Tilshunos o‘zbek frazeologiyasida birinchilardan bo‘lib FBlarning uslubiy vazifalarini tizimli ravishda o‘rgangan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilidagi frazeologik birliklar xalqning milliy dunyoqarashi va madaniy tajribasini aks ettiruvchi muhim til birliklaridir. Ularning semantik tuzilishida xalqning urf-odatlari, qadriyatlari, turmush tarzi, tarixiy tajribasi va obrazli tafakkuri namoyon bo‘ladi. Frazeologizmlarni lingvokulturologik jihatdan o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy munosabatni chuqurroq anglash imkonini beradi. Shuningdek, frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etish o‘zbek tilining boy imkoniyatlarini ochib berish, milliy tafakkurning tildagi ifodasini aniqlash hamda o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchilarga milliy-madaniy mazmunni yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salomov G‘. Tarjima tashvishlari. − Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. – 138 b.

[26] Хакимова Г. Э. Фразеологик бирликлар этимологиясининг когнитив аспекти // ЎзМУ хабарлари. – 2014. – № 5. – Б. 3–4.

2. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B. 70.

3. Smit L. N. Frazeologiya angliyskogo yazyka. Perevod. Ignatyeva A. S. – M., 1959. – S. 207.

4. Sodiqova M. Qisqacha o‘zbekcha-ruscha maqol-matallar lug‘ati. – Toshkent, 1993. – 259 b.

5. Tagiyev M. T. Glagolnaya frazeologiya sovremennogo russkogo yazyka. Opyt issledovaniya frazeologicheskix yedinis po okruzheniya. – Baku: MAARIF, 1970. – 252 s.

6. Teliya V. N. Russkaya frazeologiya: semanticheskiye, pragmaticheskiye i lingvokulturologicheskiye aspekty. – Moskva, «Yaziki russkoy kulturi», 1996. – S. 286.

7. Turapova N. O frazeologicheskix analogax yaponskogo i uzbekskogo yazikov // O‘zbekistonda xorijiy tillar, № 2 (10) / 2016. – S. 74-78.